

ERTA TURMUSH QURISHNING SALBIY OQIBATLARI VA UNING OLDINI OLISH

Ochilova Ozoda

Buxoro viloyati, Qorako'l tumani 30-maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11318805>

Annotatsiya. Mazkur maqolada erta turmush qurishning salbiy oqibatlari va uning oldini olish masalalari yoritib berilgan. Maqola davomida qizlarni oilaga tayyorlashning psixologik omillariga va ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola so'nggida erta turmushning oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: erta turmush qurishning salbiy oqibatlari, psixologik omillar, yosh oila.

NEGATIVE CONSEQUENCES OF EARLY MARRIAGE AND ITS PREVENTION

Abstract. This article highlights the negative consequences of early marriage and its prevention. Throughout the article, the psychological factors and importance of preparing girls for the family were discussed. At the end of the article, conclusions and suggestions on measures to prevent early marriage are given.

Key words: negative consequences of early marriage, psychological factors, young family.

НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ РАННИХ БРАКОВ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА

Аннотация. В данной статье освещаются негативные последствия ранних браков и вопросы их профилактики. На протяжении всей статьи обсуждались психологические факторы и важность подготовки девушек к жизни в семье. В конце статьи даны выводы и предложения по мерам профилактики ранних браков.

Ключевые слова: негативные последствия раннего брака, психологические факторы, молодая семья.

Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

ISLOM KARIMOV

Mamlakatimizda oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir oila mustahkam poydevorga ega bo'lishiga erishish, jamiyatda har bir go'dakning sog'lom tug'ilishi va yashab ketishini to'la kafolatlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, yigit-qizlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Afsuski, ayrim ota-onalar

ko'pincha farzandining kelajak taqdiri, baxt-saodati haqida o'ylamay, hali balog'at yoshiga yetmagan qizini uzatish yoki qarindoshimning qizi begona bo'lmasin, deb o'g'il uylantirish taraddudiga tushadi.

Buning oqibatida qizlarni o'n olti, hatto undan kichik yoshda turmushga uzatib yuborish hollari uchrab turadi. Ammo bu ko'p hollarda bo'lg'usi onaning salomatligi va ruhiyatiga, qolaversa, yosh oilaning mustahkamligi, tug'ilajak farzandning sog'lomligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislar tomonidan qizlarning 16-18 yoshlarda ona bo'lishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Ko'p hollarda bunday yoshdagi qizlarning sog'lom farzandni dunyoga keltirishida turli muammolar kelib chiqadi. Qizlarning jismonan va ruhan onalikka tayyor bo'lmasdan oila qurishi ko'pincha tug'ruq jarayonida o'lim xavfi ortishiga sabab bo'ladi. Binobarin, erta homiladorlik yosh ona hamda bo'lajak farzand uchun har tomonlama xavflidir.

Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, erta hamda qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Balog'at yoshidagi qizlarga shaxsiy gigiyena, sog'lom oila asoslari va sog'lom turmush tarzi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, nasl salomatligiga tahdid soluvchi kasalliklar va illatlardan saqlanish kerak

Ayol qancha yosh bo'lsa, homiladorlik davridayoq turli patologik, ekstragenital xastaliklar kuchayadi, yo'ldosh yetishmovchiligi, suyaklar tizimida ro'y beradigan o'zgarishlarning salbiy oqibatlari ko'p bo'ladi. Erta homiladorlik ko'pincha bola tushishi yoki o'lik tug'ilishi bilan tugaydi, bu holat homilaning nuqsonli rivojlanishi sababli ham ona, ham bola salomatligiga katta xavfdir. Bunday asoratlar keyingi homiladorlikning normal kechishi va tug'ruqning tabiiy ravishda amalga oshishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois yosh turmush qurgan ayollarning farzandlari jarrohlik amaliyoti orqali dunyoga keltiriladi. Surunkali kislorod yetishmasligi tufayli ona qornida sust rivojlangan chaqaloqlarning vazni ancha kam bo'ladi va, afsuski, ularning aksariyati ko'p yashamaydi.

Ta'kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16–17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'uruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19–20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarga 20–22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda.

Ikki yosh rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy oldin joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) idoralariga ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqarolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin-kuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish

talabi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak hastaliklarini davolamay turib homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan.



Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishlari, sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirishlari uchun avvalo o'zlari sog'lom bo'lishlari kerak. Hozirga kelib tibbiy ko'rikning ahamiyatini aksariyat ota-onalar tushunib yetdilar. Ammo shunday bo'lsa-da, "Hali turmushga chiqmagan yosh qiz turli yo'nalishdagi shifokorlarga uchrab yurishining nima keragi bor?" deb tor mulohaza yuritadiganlar ham yo'q emas. Ana shunday fikrlash sababli tibbiy ko'rikning talab darajasida o'tkazilishiga e'tibor bermay, giyohvandlikka berilgan yoki nasliy kasalligi bo'lgan kuyovga uzatish oqibatida baxtsiz qolgan qizlar, pushaymon chekkan ota-onalar hayotda uchrab turibdi.

Aksariyat erta oila qurgan qizlarda kamqonlik, kamquvvatlik kuzatiladi. Bu hol kelinlarning uzoq vaqt bo'yida bo'lmasligi, homiladorlik og'ir kechishiga, go'daklar nobud bo'lishi yoki nogiron tug'ilishiga, tug'uruqdan keyingi turli asoratlarga, hatto bepushtlikka olib kelishi mumkinligini shifokorlar ta'kidlaydi.

Payg'ambarimiz (alayhissalom): "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir", deb ta'kidlaganlar (Bayhaqiy rivoyati). Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz ayol, rafiqa, ona, beka, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to'kis ado etishga qiynaladi. Yoshlar 9 yil o'rta umumta'lim maktabi, undan so'ng litsey va kollej ta'limini olishlari shart. Zero, dinimiz ta'limotlariga ko'ra ilm olish, ma'rifatli bo'lish, hayot uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'rganish har bir qiz bola uchun ham farzdir. Bordi-yu, shundan oldin turmush qursalar, o'qish ham chala, oila yumushlari ham, uy bekaligi va boshqa ishlar ham chala

bajarilishiga yo'l ochilgan bo'ladi. Muhimi, ilmi va kasb-hunarli ayolgina farzandining komil inson bo'lishiga intiladi.

Turmush qurish, oila tebratish va farzand tarbiyasi kabi muhim ishlarda diniy va milliy an'analimizga rioya qilish, oila va nikoh borasida davlatimiz chiqargan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilish zarur. Afsuski, hozirgi kunda ba'zi chalasavod kishilar o'zboshimchalik bilan yuqorida aytilgan nikoh shartlari bajarilishini so'rab-surishtirmay, boz ustiga, yoshlarga oilada er va xotinning haq-huquqlarini, taloq masalalarini tushuntirmasdan, kelin-kuyovlarga nasihat qilmasdan, yengil-yelpi shar'iy nikoh o'qimoqdalar. O'zlarining chalasavod ekanliklarini bilganliklari uchun ikki yoshni nikohlashdek mas'uliyatli ishni "eng ichida" o'tkazishga urinadilar. Ular poydevori mustahkam bo'lmagan oilalar qurilishiga sababchi bo'lmoqdalar. Oqibatda ajrimlar ko'paymoqda, bolalar tirik yetim qolib, yoshgina ayollar bir umrga baxtsiz bo'lib qolmoqda.

Oysha onamiz (roziyallohu anho) rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam):

"Nikohni do'mbiralalar bilan e'lon qilinglar, uni masjidida o'qinglar", dedilar (Imom Termiziy rivoyati). "Ashboh" va boshqa fiqhiy kitoblarda nikohning masjidida bo'lishi mustahab, deyilgan. Nikoh ham ma'naviy ibodat bo'lgani uchun masjidida o'qiladi.

Noqonuniy nikohlarning oldini olish uchun shar'iy nikohlarni faqat rasmiy jome masjidlar imom-xatiblari yoki imom noiblari o'qishini, shar'iy nikoh o'qishdan oldin kelin-kuyovlarning rasmiy oila qurganligi haqida FHDYO bo'limlari guvohnomasi olinishini, shuningdek, O'zbekiston musulmonlari idorasi joriy etgan nikohnoma kitobchasi bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq qayd etilib, nikohlanuvchilarga taqdim etilishini, qonuniy nikoh yoshiga yetmagan yoshlar o'rtasida shar'iy nikoh tuzish qat'iy taqiqlanishini, imom-xatiblar joylardagi QFY va MFY mutasaddilari bilan hamkorlikda norasmiy shaxslar nikoh o'qishiga qarshi tushuntirish ishlari olib borishlarini yo'lga qo'yish kerak.

Hanafiy mazhabi mo'tabar manbalaridan «Durrul muxtor» kitobining «Nikoh fasli»da bunday deyiladi: "Odamzodga nikoh va imondan boshqa hatto jannatda ham davom etadigan ibodat yo'q. Oila shunday saodatbaxsh bir bog'ki, u hatto jannatda ham davom etadi. Har qanday shartnoma ma'lum muddatdan so'ng kuchini yo'qotadi, ammo bir-birlaridan rozi bo'lgan umr yo'ldoshlarning birgalikdagi hayoti o'lim bilan ham tugamaydi".

Nikoh ikki dunyo saodatiga yigit va qizni birga eltuvchi muqaddas rishta bo'lsin.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga kuramiz. "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash tarakqiyoti va xapkfaronligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
4. Adizova T.M. Psixokorreksiya. Toshkent, 2006 (uchebnoye posobiye).
5. Ambrumova A.G., Tixonenko V.A. Diagnostika suitsidalnogo povedeniya. -M., 1980.